O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI MAMLAKATLARI BILAN TASHQI IQTISODIY HAMKORLIGI VA INTEGRATSION ALOQALARI

Xursanabodov Jaxongir Baxit o’g’li
Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasi talabasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Ilmiy rahbar:
Narov Ulug‘bek Iriskulovich,
iqtisod fanlari doktori,
Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasi professori
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: jahongirhursanabodov@gmail.com
+998909212565

Annotatsiya. Mazkur maqolada MDHning tashkil topishi, maqsad va vazifalari hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi o‘rni tahlil qilingan. Unda O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorligi, eksport-import aloqalarining rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning MDH iqtisodiyotidagi o‘rni, YeOII bilan hamkorlik istiqbollari va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning afzallik hamda kamchiliklari ilmiy-amaliy jihatdan baholangan.

Kalit so‘zlar. MDH, O‘zbekiston iqtisodiyoti, tashqi savdo, eksport, import, savdo balansi, iqtisodiy integratsiya, YeOII, xorijiy investitsiyalar, mintaqaviy hamkorlik.

ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО И ИНТЕГРАЦИОННЫЕ СВЯЗИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН СО СТРАНАМИ СОДРУЖЕСТВА НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ

Хурсанабодов Жахонгир Бахит угли
студент кафедры внешнеэкономической деятельности
Ташкентский государственный университет востоковедения
Научный руководитель:
Наров Улугбек Ирискулович,
доктор экономических наук,
профессор кафедры внешнеэкономической деятельности
Ташкентский государственный университет востоковедения
E-mail: jahongirhursanabodov@gmail.com
+998909212565

Аннотация. В статье рассмотрены история создания СНГ, его цели и задачи, а также роль в процессах экономической интеграции. Проанализированы торгово-экономические и инвестиционные связи Республики Узбекистан со странами СНГ, тенденции развития экспортно-импортных операций. Особое внимание уделено месту Узбекистана в экономике СНГ, перспективам сотрудничества с ЕАЭС, а также преимуществам и недостаткам региональной экономической интеграции.

Ключевые слова: СНГ, экономика Узбекистана, внешняя торговля, экспорт, импорт, торговый баланс, экономическая интеграция, ЕАЭС, иностранные инвестиции, региональное сотрудничество.

FOREIGN ECONOMIC COOPERATION AND INTEGRATION RELATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN WITH THE COUNTRIES OF THE COMMONWEALTH OF INDEPENDENT STATES

Xursanabodov Jakhongir Bakhit ugli
Student of the Department of Foreign Economic Activity
Tashkent State University of Oriental Studies

Scientific Supervisor:
Narov Ulugbek Iriskulovich,
Doctor of Economic Sciences,
Professor of the Department of Foreign Economic Activity
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: jahongirhursanabodov@gmail.com
+998909212565

Abstract. This article examines the history, objectives, and role of the Commonwealth of Independent States (CIS) in regional economic integration. It analyzes Uzbekistan's trade, economic, and investment cooperation with CIS member states, as well as trends in export and import activities. The study also evaluates Uzbekistan's position within the CIS economy, prospects for cooperation with the EAEU, and the advantages and challenges of regional economic integration.

Keywords: CIS, economy of Uzbekistan, foreign trade, export, import, trade balance, economic integration, EAEU, foreign investments, regional cooperation.

Kirish

Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi davlatlar o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy hamkorlikning strategik ahamiyatini oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) postsovet hududida savdo-iqtisodiy, investitsion va transport-logistika aloqalarini rivojlantiruvchi muhim mintaqaviy platforma hisoblanadi [3]. SSSR parchalangandan so‘ng mintaqa mamlakatlari bozor iqtisodiyotiga moslashish, tashqi savdo tizimini qayta shakllantirish va jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv zarurati bilan yuzlashdi [13]. O‘zbekiston Respublikasi geografik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati va resurs bazasi tufayli MDH iqtisodiy makonida muhim o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va boshqa MDH davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik, sanoat kooperatsiyasi hamda investitsion aloqalar izchil kengaymoqda [2; 4]. Shu bilan

birga, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) bilan hamkorlikning chuqurlashuvi O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiyadagi ishtiroki va istiqbollarini ilmiy jihatdan baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda [11]. Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorligi va integratsion aloqalarining hozirgi holatini tahlil qilish, tashqi savdo va investitsion hamkorlik dinamikasini baholash hamda mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi

Tadqiqotning dolzarbligi MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlikning O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatidagi muhim o‘rni, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining faollashuvi hamda YeOII bilan hamkorlik istiqbollarini ilmiy jihatdan baholash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorligi va integratsion aloqalarining hozirgi holatini tahlil qilish, savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlik dinamikasini baholash hamda ularni rivojlantirish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot maqsadi

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorligi va integratsion aloqalarining hozirgi holatini tahlil qilish, savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlik dinamikasini baholash hamda mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasining MDH va YeOII mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini miqdoriy va tarkibiy tahlil qilish tashkil etadi. Ishda O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi, UNCTAD, Jahon banki va UN Comtrade ma’lumotlar bazalarining rasmiy statistik ma’lumotlari foydalanilgan [2; 4; 5; 6]. Tadqiqot doirasida tashqi

savdo aylanmasining dinamikasi, eksport va import tarkibi hamda investitsion hamkorlik tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqaviy integratsiyaning roli, O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari va tashqi iqtisodiy hamkorlik istiqbollari baholangan.

Asosiy qism

SSSR parchalangandan so‘ng postsovet mamlakatlari chuqur iqtisodiy transformatsiya jarayonini boshdan kechirdi. Yagona xo‘jalik tizimining parchalanishi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi aloqalarining uzilishi va bozor iqtisodiyotiga o‘tish natijasida 1990-yilda SSSR umumiy savdo aylanmasining 73 foizini tashkil etgan respublikalararo savdo ulushi 1997-yilga kelib 33 foizgacha qisqardi. Ayrim mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi 40–50 foizga kamaydi, 1992–1993-yillarda esa tovar ayirboshlash hajmi deyarli ikki baravar qisqardi. Iqtisodiy aloqalarning zaiflashuvi natijasida ko‘plab MDH davlatlari xomashyo eksportiga yo‘naltirilgan iqtisodiy modelni shakllantirdi. Rossiya va Qozog‘iston neft-gaz, Ozarbayjon energetika resurslari, Belarus neft mahsulotlari va kaliy o‘g‘itlari, O‘zbekiston esa oltin, rangli metallar, tabiiy gaz va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportiga ixtisoslashdi. 1992–1994-yillarda o‘zaro savdo operatsiyalarining qariyb 40 foizi barter asosida amalga oshirilgani ham integratsiya samaradorligini pasaytirdi. 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab MDH mamlakatlari tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasini diversifikatsiya qila boshladi. Hozirgi kunda Hamdo‘stlik doirasidagi savdo umumiy tashqi savdoning 20–25 foizini tashkil etadi. 2024–2025-yillarda Rossiya mintaqa tashqi savdo aylanmasining 47 foizini yoki 720 mlrd AQSH dollarini, Qozog‘iston 147 mlrd dollarni, Ukraina 111 mlrd dollarni va Belarus 98 mlrd dollarni tashkil etdi. O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2025-yilda 81,2 mlrd AQSH dollariga yetib, shundan 33,8 mlrd dollari eksport va 47,4 mlrd dollari import hissasiga to‘g‘ri keldi. Mamlakatning MDH va Boltiqbo‘yi davlatlari tashqi savdosidagi ulushi 5,3 foizni tashkil etdi. Eksport tarkibida oltin va qimmatbaho metallar 35 foizdan ortiq

ulushga ega bo‘lsa, importda mashina-uskunalar, transport vositalari va yuqori texnologiyali mahsulotlar ustunlik qilmoqda. 2019–2025-yillarda O‘zbekistonning YeOII mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 11,1 mlrd dollardan 17,5 mlrd dollargacha oshdi. Rossiya bilan savdo hajmi 6,6 mlrd dollardan 11,6 mlrd dollarga, Qozog‘iston bilan esa 3,3 mlrd dollardan 5,1 mlrd dollarga yetdi. 2022-yilda MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 19,2 mlrd dollarni tashkil etib, O‘zbekiston tashqi savdosining 38,4 foiziga teng bo‘ldi. Asosiy hamkorlar Rossiya (48,4%), Qozog‘iston (24,1%) va Qirg‘iziston (6,6%) hisoblanadi. O‘zbekistonning YeOII bilan hamkorligi 2020-yilda kuzatuvchi maqomi olinganidan so‘ng faollashdi. Sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport-logistika va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi yo‘nalishlarida hamkorlik kengaymoqda. Xususan, “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temiryo‘l loyihasi mintaqaviy integratsiyani kuchaytiruvchi muhim tashabbuslardan biridir. 2025-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi Rossiyada 38 mlrd dollar, Qozog‘istonda 15,7 mlrd dollar va O‘zbekistonda 11,8 mlrd dollarni tashkil etdi. Investitsiyalar asosan energetika, sanoat, infratuzilma va logistika sohalariga yo‘naltirilmoqda. Umuman olganda, MDH davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning geografiyasi va mazmuni sezilarli darajada o‘zgargan. O‘zbekiston mintaqaviy integratsiyaning faol ishtirokchisi sifatida savdo, investitsiya va sanoat kooperatsiyasi yo‘nalishlarida o‘z pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. Shu bilan birga, eksportni diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MDH mamlakatlari jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib va tashqi savdo geografiyasini kengaytirib borayotgan bo‘lsa-da, o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni saqlab qolmoqda. O‘zbekiston MDH iqtisodiyotining faol ishtirokchilaridan biri sifatida Rossiya va Qozog‘iston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni izchil rivojlantirmoqda. Shu bilan birga, eksportda xomashyo ulushining

yuqoriligi va texnologik importga qaramlik dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Investitsion hamkorlikning kengayishi hamda YeOII bilan aloqalarning mustahkamlanishi O‘zbekiston uchun yangi bozorlar ochish, iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va mintaqaviy integratsiyadagi mavqeini kuchaytirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi // Tashqi savdo bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar.
3. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) // MDH Ijroiya qo‘mitasining rasmiy portali.
4. Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi (YIK) // YEOII bo‘yicha statistik ma’lumotlar va tahliliy materiallar.
5. UN Comtrade Database // BMTning xalqaro savdo statistikasi bazasi.
6. World Bank Open Data // Makroiqtisodiy va tashqi savdo statistikasi ma’lumotlari.
7. UNCTAD. *World Investment Report 2025* // ЮНКТАД ҳисоботлари ва таҳлилий нашрлари.
8. UNCTAD Investment Statistics Database // ЮНКТАД инвестиция статистикаси базаси.
9. Eurostat Database // Yevropa Ittifoqi statistik ma’lumotlari bazasi.
10. Review.uz // O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha tahliliy materiallar.
11. “Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to‘g‘risida”gi Shartnoma (2014) // YEOII shartnomasining rasmiy matni.